

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SHEVALARNING ALOHIDA O‘RNI VA AHAMIYATI

Abduraimov Dilshodjon Abduraim o‘g‘li

University of Busines and Science (UBS university)

Tillar kafedrası o‘qituvchisi

[*dilshodjonabduraimov8@gmail.com*](mailto:dilshodjonabduraimov8@gmail.com)

+998937259103

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosan hozirgi o‘zbek adabiy tilida shevalarning o‘ziga xos o‘rni hamda ahamiyati haqida muhim bo‘lgan nazariy qarashlar va ma’lumotlar qisqacha tarzda ochib beriladi hamda bundan uning (shevalarning) mazmun-mohiyati anglashiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiy til, sheva, dialekt, lahja, metod, sotsiolingvistika, fan, Idiom.

Abstract

This article briefly presents important theoretical views and information about the specific role and significance of dialects in the modern Uzbek literary language, and from this, its (dialects) content and essence are understood.

Key words: Literary language, dialect, dialect, method, sociolinguistics, science, Idiom.

Аннотация

В данной статье кратко представлены важные теоретические взгляды и информация о специфической роли и значении диалектов в современном узбекском литературном языке, а также дается понимание их содержания и сущности.

Ключевые слова: Литературный язык, диалект, метод, социолингвистика, наука, идиома.

KIRISH (INTRODUCTION)

“O‘zbek dialektologiyasi” ijtimoiy lingvistika fanlaridan biri bo‘lib, o‘zbek shevalarini o‘rganadi. Dialektologiya so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma‘noni bildiradi. O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini hamda shevalarning faoliyatda bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy ma‘naviy qadriyat hisoblanadi.

ASOSIY QISM (MAIN PART)

Sheva (fors. — harakat tarzi, tarz, usul) — [tilning fonetik](#), [grammatik](#) va lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik hududiy ko‘rinishi — sezilarli lisoniy tafovutlari bo‘lmagan bir yoki bir necha aholi maskani (odatda, qishloq)da yashovchilarning so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llanadi. Sheva — bu boshqa Sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so‘z yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Masalan, qipchoq lahjasining mang‘it yoki saroy shevasi, qarluq lahjasiga mansub Marg‘ilon shevasi va boshqalar o‘zbek tilining eng kichik hududiy ko‘rinishlari hisoblanadi. Alohida Shevalar birikib, lahjasi tashkil etadi.

Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar: Shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan Sheva vakillarining boshqa Shevalar va tillarning vakillari bilan aloqa qilish darajasi, adabiy tilning shahriga ta‘siri va shahrik.ga bog‘liq. Alohida ajralib qolgan Shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o‘rtasida aloqalarning yo‘qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e‘tiqod jihatdan ayni Sheva vakillaridan keskin farqlanishi tufayli), sheva vakillarining an‘anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida Sheva juda sekinlik bilan o‘zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo‘ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shahrining kuchli ta‘siri ostida bo‘lgan shahrida aholining turli guruhlari nutqiga xos bo‘lgan, birbiriga qarama-qarshi qo‘yilgan va turli darajada farqlanadigan an‘anaviy (qadimgi) va yangi qatlamlar ajralib turadi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qoʻllanish doirasi keng boʻlib, lahja va Shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy til meʼyorlarining takomillashuvi, fan va madaniyat taraqqiyoti, shahar bilan qishloq oʻrtasidagi tafovutlarning kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli Shevalar ham asta-sekin oʻz hususiyatlarini yoʻqota boradi.

Shevalar qadimdan oʻxshashlik bilan boʻlgan misol uchun: Margʻilon-Qoʻqon-Toshkent-Fargʻona. Janubiy Turkiston(Afgʻoniston shimoli) va Surxon shevalari oʻxshashdir. Navoiy va Buxoro gʻarbi, Xorazm va Turkman tili. Andijon va Quva shevasi, Namangan va Ohangaron,Olmaliq shevalari bir birga juda oʻxshashdir.Shevalar tilshunoslikning dialektologiya boʻlimida oʻrganiladi. Oʻzbek Shevalarini oʻrganishga Gʻozi Olim Yunusov, Ye.D. Polivanov, A.K. Borovkov, V.V. Reshetov, F. Abdullayev, Sheva Shoabdurahmonov, A. Ishayev, S. Otamirzayeva, O. Madrahimov va boshqalar katta hissa qoʻshdilar. Ad.: Reshetov V.V., Sh oabdurahmonov Sheva, Oʻzbek dialektologiyasi, T., 1978. Abduvahob Madvaliyev.

Sheva (forscha: harakat tarzi, tarz, usul) — umumxalq tilining maʼlum bir hududda yashovchi aholiga xos boʻlgan mahalliy tarmogʻi. U adabiy tildan oʻzining fonetik (talaffuz), grammatik (soʻz yasash va oʻzgartirish) va lugʻaviy (shevaga xos soʻzlar) xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Hududiy bogʻliqlik: Odatda bitta qishloq, tuman yoki viloyat aholisining nutqida yaqqol namoyon boʻladi (masalan, Fargʻona shevasi, Surxondaryo shevasi yoki Toshkent shevasi). [2.4]

Lahja bilan bogʻliqligi: Bir nechta oʻxshash shevalar oʻzaro birikib, kattaroq hududiy birlik — **lahjani** (masalan, oʻzbek tilidagi qarluq, qipchoq, oʻgʻuz guruhlarini) tashkil etadi. [2.6]

Adabiy tildan farqi: Shevalar umummilliy tilning bir qismi hisoblanadi, lekin ular adabiy meʼyorga kirmaydi va asosan ogʻzaki nutqda qoʻllaniladi. [3.1] Aslida ona tili deganda, shevalarni tushunish haqiqatga yaqindir, shuning uchun ham uni asrab-avaylash,

qadrlash zarur. Bu haqda I. A. Karimovning: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir 1” , – degan soʻzlarini eslash oʻrinlidir. Demak, shevalar toʻgʻrisidagi fanni oʻrganish talabalarni milliy gʻoya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tugʻdiradi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSIONS)

Toʻgʻri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda oʻzbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu oʻz shevasini unutishi kerak degan maʼnoni anglatmaydi. Oʻzbeklar hozirgi Oʻzbekiston Respublikasi, Markaziy Osiyo mamlakatlarida, Afgʻoniston, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Avstraliya, Xitoy Uygʻuristonida va boshqa mamlakatlarda istiqomat qiladilar. Albatta, ularning tili oʻzbek tili boʻlsa-da, oʻziga xos mahalliy xususiyatlarga ega. Oʻzbek shevalari oʻzbek tilining mahalliy koʻrinishlari boʻlib, uni oʻrganish fan uchun nazariy ahamiyat kasb etsa, boʻlajak til va adabiyot oʻqituvchisi uchun amaliy ahamiyatga ham molikdir.

“Oʻzbek dialektologiyasi” fanini oʻrganishdan maqsad oʻzbek shevalarining eng muhim xususiyatlari – fonetik, leksik, morfologik va, qisman, sintaktik xususiyatlari hamda lingvistik geografiya haqida talabalarga zaruriy bilimlarni berishdir. Bu esa quyidagi vazifalarni keltirib chiqaradi: - talabalarga oʻzbek dialektologiyasi boʻyicha zaruriy bilimlarni berish va shu asosda tayanch tushunchalar toʻgʻrisida tasavvur hosil qilish; - oʻzbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik qurilishi haqida maʼlumot berish; - jahon tajribasidagi dialektologik bilimlar bilan tanishtirish; - shevalarni oʻrganish metodlari bilan tanishtirish hamda sheva vakillaridan maʼlum bir sheva xususiyatlarini yozib olish malakasini hosil qilish; - adabiy til va sheva munosabatlari toʻgʻrisida tushuncha hosil qilish; - maktab va akademik litseylar taʼlimida dialektal xatolarning oldini olishga nazariy va amaliy tayyorlash. Har bir tildagi shevalarining mavjud holatini oʻrganuvchi fan tasviriy dialektologiya deb yuritiladi. Oʻzbek dialektologiyasi hozir tasviriy dialektologiya bosqichidadir.

Bu fan boshqa fanlarni, shu jumladan, til tarixini oʻrganishda muhim manba ekanligi hisobga olinsa, bu jarayonda tarixiy dialektologiya toʻgʻrisida ham fikr yuritish lozim boʻladi. Tilning rivojlanishi ayni oʻrinda shevalarning ham tarixiy rivojlanishi hisoblanadi.

Bu esa tarixiy dialektologiyaning tekshirish obyektidir. O‘zbek tilshunosligida tarixiy dialektologiya endigina shakllanib kelmoqda. Turkologiyada shevalarni o‘rganish XI asrda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridan boshlangan bo‘lsa, dialektologiya fan sifatida jonli xalq nutqiga qiziqish tufayli XVII asr oxirlarida Germaniyada shakllandi.

Bu davrda Germaniyada xalq shevalaridan mahalliy so‘zlar yig‘ilgan va lug‘atlar tuzilgan. Shevalarni ilmiy asoslarda o‘rganish ishi esa XIX asrning ikkinchi yarmida “Yosh grammatikachilar” tomonidan amalga oshirildi va shevalar tabiiy, to‘xtovsiz va o‘z-o‘zidan rivojlanish mahsuli hamda til sistemasining qonuniy ravishda turli hududlariga tarqalgan tarkibiy qismi deb qaralgan. Til va sheva munosabati. Inson tili, asosan, uch funksiyani bajaradi: bir-biri bilan aloqa qilish vositasi, fikr ifodalash quroli, o‘z histuyg‘ularini ifoda qilish imkoniyati.

Konkret bir til shu til egalarining tilidir. Til egasi tushunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs, 2) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, 3) o‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs. Dialekt so‘zi yunoncha bo‘lib, sheva, so‘zlashish degan ma’nolarni bildiradi va aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi. Lahja arabcha so‘z bo‘lib, u ravish, tarz, yo‘sin, sheva ma’nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o‘zbek tilining taraqqiyotiga asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng yirik to‘dasini anglatadi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytamizki, Lahja va shevalar termini o‘zbek, turk tillarida iste’molda bor, boshqa aksariyat millatlar dialektologiyasida ko‘proq dialekt terminiga murojaat qilinadi. Shuningdek, rus dialektologiyasida наречие (lahja), диалект, говор (sheva) terminlari qo‘llanadi. Ko‘rinadiki, sheva, dialekt, lahjalar har bir tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi va ular muayyan til negizida amalda bo‘ladi hamda “O‘zbek dialektologiyasi”ning markaziy masalasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda dialekt terminini sheva va lahja ma’nosida qo‘llash an’anasi ham bor. Axborot manbalarida til, lahja, dialekt, sheva, sotsiolekt (ijtimoiy dialekt) tushunchalari

idiom termini ostida birlashtiriladi. Boshqacha aytganda, idiom o‘zga (qarindosh) tillardan bir qator xususiyatlari bilan farqlanadigan mustaqil (alohida) tildir. Shuninhdek, adabiyotlarda lahja, dialekt, shevalar tilning ko‘rinishlari (разновидность языка) deb ham yuritiadi. Chambers J. K., Peter Trudgillar idiom va tilning ko‘rinishlari terminiga mos keluvchi variety terminini qo‘llagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -T-2010. 367-b.
2. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiq-lari. - T.: Fan, 1974. -221-b
3. Jarimbetov Q., Allambergenov I., Nizamatdinov J. Qaraqalpoq folklor. – T. 2018. 255-b.
4. Qaraqalpaq folklor.77-87-tom. Nəkis. Ilim. 2017. 555-b.
5. Qazaqbaev S. Қарақалпақ салт-дәстур жырлары. Нөкис. Qaraqalpaqstan. 32b.
6. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safartov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: O‘qituvchi. 1990. 303-b.
7. Mətmuratov Q. Terbenbes. Nəkis. Bilim -2004. -334-b.